

QORAQALPOQ XALQ QO'SHIQLARIDA URF-ODAT AN'ALARINING IFODALANISHI.

Guzzal O'tepbergenova

Azada Jalg'asbaeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Folklor asarlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari Ajdodlar tomonidan yaratilib, xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an'ana, urf-odat va marosimlar bevosita folklor san'atida o'z ifodasini topgan. Folklor asarlarini sahnalashtirish bugungi kunda folklor san'atining serjilo janrlarini rivojlanishiga, talabalar qalbiga milliy ong, milliy g'urur, milliy iftihar kabi tuyg'ularni singdirishga zamin bo'ladi.

"An'ana" - tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singgan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

"Marosim" bu tushuncha nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat.

Shuningdek marosim inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir.

Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi.

Boshqacha qilib aytganda, marosim jamoa tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbiridir.

Xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi sifatida vujudga kelgan marosimlar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Marosimlar o'zida xalqning asriy an'analari, turmush tarzi, mentaliteti, qolaversa, g'oya va qarashlarini bevosita aks ettiruvchi voqealik sifatida gavdalanar ekan unda xalq turmushining etnik va estetik jihatlari o'z ifodasini topadi.

Insonning tug'ulishi, hayotining ma'lum bosqichi, shu jumladan, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish o'ziga xos an'anaga aylangan. Bunday an'analarda barcha xalqlar madaniyatida mavjud ekanligini e'tirof etish zarur.

"Urf-odat" deganda kishilarning turmushiga singgib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi harakati, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xalq-atvor qoidalari ko'nikmasidir.

Urf-odat tushunchasi esa o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini oddiy kundalik udum, rasm-rusm, irim-sirimlar, o'zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi.

Bu xalq ijrochiligidagi xalq qo'shiqlari durdonalarida aniq ko'zga tashlanadi. Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari ijro jihatidan erkaklar va ayollar qo'shiqlari sifatida ajraladi.

Ulardan «Júrin qızlar», «Yarıma», «Intizarimsañ», «Meniń yarım keler gúzar jol menen», «Qosıq aytsam», «Esiktiń aldınan bir at aylandı», «Iyne alsam», «Jas júregim qaltıraydı qamıstay», «Jeńgejan», «Aq koylek ishinde ilgegim sarı», «Anaw turǵan almameken, nármeken», «Qızıl gúldi egeseńde keteseń», «Qızıl gúller ashılǵayda solmaǵay», «Usı shártim», «Aq shayıdan kóylegim», «Dáryanıń iyirim tartar shıǵanaǵı», «Yar seni baǵman áyleyin», «Maxutaban kórindi» kabi xalq qo'shiqlari tematikasi jihatidan ayollar va qızlar qo'shiqlari dep qaraladi.

Deyarli 60 ga yaqin erkaklar xalq qo'shiqlari bor va ulardan «Yar qara kózleriń ne tiler mennen», «Keler sallana sallana», «Kirmey kettiń gúl baǵıma», «Yar qırmızı kiyinipti», «Yarım kelmedi», «Sallanǵan kimniń yarısañ», «Kók góne kepter emespen», «Nazlı jananam oyan», «Qayda bolar», «Xabarlas», «Gúlziyba», «Aqsungúl», «Meniń gúlim ashılmaspa» va boshqalarini aytib o'tish joyiz. Xalq qo'shiqlari tarkibi, qurilishi va san'ati jihatidan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Xalq qo'shiqlari tarixi va an'alarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Qoraqalpoq xalqining musiqa madaniyatida xalq tarixi eng yorqin aks ettirilgan. Barcha qoraqalpoq dostonlari vatanparvarlik va o'z mamlakati bilan faxrlanish ruhiga singib ketgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, qoraqalpoq musiqasi xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq. Ko'plab qoraqalpoq afsona va xalq eposlari, musiqa va xalq og'zaki ijodi barcha turkiy xalqlarining xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Qoraqalpoq musiqasi xalq og'zaki ijodi avloddan-avlodga jirov va baxshi sozandalari tomonidan ijro qilinib yetkazib kelingan.

Qoraqalpoq xalqining jirov va baxshi sozandalari milliy musiqa asboblarida kuylab, o'z asarlarini maxsus qo'shiq uslubida ijro etadigan xalq qo'shiqchilaridir.

Baxshi qo'shiqchilari xorazmliklar orasida ham uchraydi, bu ikki madaniyatning yaqinligidan dalolat beradi.

Jirovchilik qo'shiqlari XVIII asroxirida, aslida qoraqalpoq adabiyoti va musiqa san'ati rivojlana boshlaganidan so'ngra keng tarqalgan. Bu davrda Qoraqalpog'istonning mashhur shoir-musiqachilari Jien-jirov (1730-1784), Kunxo'jalar (1799-1880) yashagan va ijod qilgan.

Ular qoraqalpoq xalqining musiqa va adabiy san'atining yorqin vakillaridir. Ular o'z asarlarini musiqaning o'tkir tillari ostida kuylagan, she'rlar va dostonlarga o'ziga xos sehrli ovoz bergan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, musiqa o'z yo'nalishlari va janrlari bilan san'atning yagona turi hisoblanadi.

Musiqa insonga zavq berish, kayfiyat, tabiiy kuch berish xususiyatiga ega.

Musiqaning bu xususiyatlari qadimgi davrlardan beri bizga ma'lumdur. Musiqa bilan bog'liq bo'lmagan insonni kam uchratish mumkin.

Buni biz qoraqalpoq folklorining qanchalik darajada rivojlanganligi va bizgacha yetib kelganligini dalil qilib ko'rsatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isayev. Kamoliddin. Folklor asarlarini sahnalashtirish. Toshkent-2019
2. Lutfullaev Hayrullo. Folklor yakka qo'shiq ijrochiligi. Toshkent-2008
3. Yuldosheva Saodatxon. Folklor-etnografik jamolar usluviyoti. Toshkent-1999
4. Saymanova A.M. Qaraqalpaq xalq qosiqlarini lingvoma'deniy analizi. 2024